

GOSPITAL TA'LIM SHAROITIDA ONA TILI FANINI O'QITISH: MUAMMOLAR, METODOLOGIK YONDASHUVLAR VA SAMARALI STRATEGIYALAR

Gafurova Muxayyo Mamirovna
Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi
huzuridagi "Mehrli maktab" davlat ta'lim muassasasi
Andijon viloyati filiali umumiy o'rta ta'limni
tashkil etish bo'yicha pedagog xodim
muhammadayyubmen061@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada gospital ta'lim sharoitida ta'lim olayotgan o'quvchilarga ona tili fanini o'qitish jarayonida yuzaga keladigan asosiy pedagogik, psixologik va metodik qiyinchiliklar keng yoritilgan. Tadqiqot davomida gospital ta'limning o'ziga xos xususiyatlari, o'quvchilarning sog'lig'i bilan bog'liq cheklovlar, o'quv jarayonining uzluksizligini ta'minlash masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishda uchraydigan muammolarni bartaraf etish yo'llari sifatida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, individual ta'lim yondashuvlari, integrativ o'qitish metodlarining samaradorligi ilmiy asosda bayon etiladi.

Kalit so'zlar: gospital ta'lim, ona tili, individuallashtirilgan yondashuv, psixologik yondashuv, adaptiv metodlar, integrativ yondashuv, pedagogik texnologiya, interfaol metodlar, refleksiya metodi, og'zaki nutq, yozma nutq.

Kirish

Bugungi kunda ta'lim tizimini insonparvarlik tamoyillari asosida tashkil etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, sog'lig'i sababli uzoq muddat davolanish muassasalarida bo'lib turgan bolalarning uzluksiz ta'lim olish huquqini ta'minlash alohida e'tiborni talab etadi. Ana shunday sharoitda tashkil etiladigan gospital ta'lim tizimi zamonaviy pedagogikaning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida shakllanmoqda.

Gospital ta'lim sharoiti an'anaviy maktab muhitidan tubdan farq qiladi. Bunday sharoitda ta'lim jarayoni nafaqat bilim berishga, balki o'quvchining psixologik barqarorligini saqlash va ijtimoiy moslashuvini ta'minlashga ham qaratiladi. Shu jihatdan ona tili fani gospital ta'lim jarayonida nafaqat bilim beruvchi, balki o'quvchining nutqiy faoliyatini rivojlantiruvchi, ruhiy holatini qo'llab-quvvatlovchi va ijtimoiy moslashuviga yordam beruvchi fan sifatida muhim o'rin tutadi. Shifoxona muhiti bolaning psixologik holatiga kuchli ta'sir ko'rsatishi sababli ona tili darslarini tashkil etishda qator pedagogik, psixologik va tashkiliy qiyinchiliklar yuzaga keladi. Mazkur maqolaning maqsadi gospital ta'limda ona tili fanini o'qitish jarayonida uchraydigan muammolarni aniqlash va ularni samarali hal etish yo'llarini ko'rsatib berishdan iborat.

Gospital ta'lim tushunchasi va uning o'ziga xos xususiyatlari

Gospital ta'lim – bu uzoq muddat davolanish jarayonida bo'lgan bolalar uchun tashkil etiladigan maxsus ta'lim shakli bo'lib, u an'anaviy maktab ta'limidan mazmuni va tashkiliy jihatlari bilan farqlanadi. Avvalo, bu ta'lim turi o'quvchining sog'lig'i, jismoniy holati va ruhiy kechinmalarini inobatga olgan holda olib borilishi bilan ahamiyatlidir. Kasallik sababli bola odatiy ijtimoiy muhitdan uzoqlashadi, bu esa uning bilim olishga bo'lgan motivatsiyasi va psixologik barqarorligiga ta'sir ko'rsatadi. Shu bois gospital ta'lim jarayonida pedagog nafaqat o'qituvchi, balki ma'naviy ko'mak beruvchi shaxs sifatida ham namoyon bo'ladi.

Gospital ta'limning muhim xususiyatlaridan biri individuallashtirilgan pedagogik yondashuvning ustuvorligidir. Har bir o'quvchining klinik holati, davolanish bosqichi, psixo-emotsional kechinmalari hamda kognitiv imkoniyatlari turlicha bo'lganligi sababli o'quv jarayoni moslashtirilgan o'quv dasturi asosida tashkil etiladi. Bu jarayonda ta'lim mazmunini adaptatsiyalash, mavzularni soddalashtirish, o'quv yuklamasini me'yorlashtirish hamda baholash mezonlarini moslashtirish kabi pedagogik mexanizmlar qo'llaniladi. Natijada o'quvchidagi ortiqcha zo'riqishning oldi olinadi va uning o'zlashtirish darajasi barqarorlashtiriladi.

Mazkur ta'lim shaklining yana bir o'ziga xos jihati moslashuvchan tashkiliy tuzilmaga egaligidir. An'anaviy maktab ta'limidan farqli ravishda hospital ta'lim qat'iy jadval va sinf tizimiga to'liq bog'lanmaydi. Darslar individual, kichik guruhli yoki palata sharoitida olib borilishi mumkin. Ta'lim jarayoni tibbiy muolajalar grafigi bilan uyg'unlashtiriladi. Bu esa pedagogdan yuqori darajadagi kasbiy kompetensiya, moslashuvchanlik va empatik munosabatni talab qiladi.

Gospital ta'limning muhim komponentlaridan yana biri fanlararo integratsiya va multidissiplinar hamkorlikdir. O'qituvchi o'z faoliyatini shifokorlar, psixologlar, defektologlar hamda ota-onalar bilan hamkorlikda olib boradi. Ta'lim jarayoni bolaning sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi, aksincha, uning reabilitatsiya jarayoniga ijobiy hissa qo'shishi zarur. Shu jihatdan hospital ta'lim nafaqat didaktik, balki terapevtik funksiyani ham bajaradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, muntazam intellektual faoliyat bolaning ruhiy holatini barqarorlashtiradi va davolanish samaradorligini oshiradi.

Bundan tashqari, hospital ta'lim psixologik qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi. Kasallik tufayli yuzaga keladigan qo'rquv, xavotir, ijtimoiy ajralish hissi o'quvchining ta'limga bo'lgan motivatsiyasini pasaytirishi mumkin. Shu sababli pedagogik jarayonda motivatsion metodlar, rag'batlantiruvchi baholash, ijobiy emotsional muhit yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi kommunikativ va emotsional intellekt kompetensiyalariga ega bo'lishi zarur.

Gospital ta'limning yana bir muhim xususiyati ijtimoiy tenglik va uzluksizlikni ta'minlashdir. Uzoq muddat davolanish sababli ta'lim jarayonidan uzilib qolgan bolalar tengdoshlaridan ortda qolib ketmasligi uchun zarur sharoit yaratiladi. Bu esa ularning keyinchalik umumta'lim muassasasiga muvaffaqiyatli integratsiyalashuviga xizmat qiladi. Ta'lim uzluksizligi tamoyili bolada o'ziga ishonchni saqlab qolish va kelajak rejalari barqarorligini ta'minlashga yordam beradi.

Gospital ta'limda ona tili fanini o'qitishdagi qiyinchiliklar

Gospital ta'lim sharoitida ona tili fanini o'qitish jarayoni an'anaviy maktab ta'limidan sezilarli darajada farq qiladi. Mazkur fan o'quvchidan doimiy diqqat, tafakkur faolligi, tahlil qilish va mantiqiy fikrlashni talab etadi. Biroq davolanish jarayonida bo'lgan bolalarning jismoniy holati va psixo-emotsional ahvoli ko'pincha barqaror bo'lmaydi. Tez charchash, og'riq hissi, muolajalar ta'siri natijasida diqqatning pasayishi ona tili darslarining samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Yana bir muhim qiyinchilik ta'lim jarayonining uzluksiz emasligidir. O'quvchi davolanish bosqichlariga qarab darslarda muntazam qatnasha olmasligi mumkin. Natijada mavzular o'rtasida uzilish yuzaga keladi, bu esa grammatik qoidalar, imlo me'yorlari va nutqiy ko'nikmalarni shakllantirishda murakkablik tug'diradi. Ona tili fanining tizimlilik xususiyati buzilganda o'zlashtirish darajasi pasayadi.

Gospital muhitning o'ziga xosligi ham muayyan to'siqlarni keltirib chiqaradi. Palata sharoitida dars o'tish jarayonida tashqi omillar — tibbiy jihozlar, muolajalar, boshqa bemorlarning mavjudligi — o'quvchining diqqatini chalg'itishi mumkin. Bundan tashqari, sinf jamoasining yo'qligi sababli muloqotga asoslangan metodlarni to'liq qo'llash imkoniyati cheklanadi. Ona tili fanida esa suhbat, bahs-munozara, jamoaviy tahlil kabi interfaol metodlar muhim o'rin tutadi.

Psixologik omillar ham muhim ahamiyatga ega. Kasallik tufayli yuzaga kelgan xavotir, tushkunlik yoki ijtimoiy ajralish hissi o'quvchining nutqiy faolligini susaytirishi mumkin. Ayrim holatlarda bola o'z fikrini erkin ifodalashga qiynaladi yoki dars jarayoniga qiziqish bildirmaydi. Bu esa aynan nutq o'stirishga yo'naltirilgan ona tili fanida sezilarli muammo tug'diradi.

Shuningdek, o'quv materiallarini moslashtirish zarurati ham o'qituvchi uchun murakkab vazifadir. Ona tili fanida nazariy tushunchalar va amaliy mashqlar o'zaro uzviy bog'langan bo'lib, ularni soddalashtirish jarayonida mazmunning yaxlitligini saqlab qolish oson emas. Shu bois pedagogdan yuqori metodik mahorat, kreativ yondashuv va differensial ta'lim tamoyillarini puxta bilish talab etiladi.

Gospital ta'limda ona tili fanini o'qitishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish yo'llari

Gospital ta'lim sharoitida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni samarali bartaraf etish, avvalo, ta'lim jarayonini o'quvchining sog'lig'i va individual imkoniyatlariga moslashtirishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, individuallashtirilgan yondashuv ustuvor ahamiyat kasb etadi. O'quv dasturini adaptatsiyalash, o'quv yuklamasini me'yorlashtirish hamda mavzularni bosqichma-bosqich o'zlashtirish tamoyili asosida tashkil etish o'quvchining ortiqcha zo'riqishining oldini oladi. Ona tili fanida ayniqsa grammatik qoidalarni kichik hajmda, sodda va tushunarli shaklda berish, ko'proq amaliy misollar bilan mustahkamlash maqsadga muvofiqdir.

Gospital ta'lim sharoitida ona tili fanini o'qitishda qo'llaniladigan metodlar imkon qadar moslashuvchan, ruhiy jihatdan yengil va o'quvchining individual holatiga yo'naltirilgan bo'lishi zarur. Avvalo, suhbat va dialogga asoslangan interfaol metodlar samarali hisoblanadi. Erkin suhbat, savol-javob, muammoli savollar asosida fikr yuritish o'quvchining nutq faolligini oshiradi. Rolli o'yinlar ham katta ahamiyatga ega, chunki ular bolani real hayotiy vaziyatga olib kiradi va tabiiy nutqiy ehtiyojni yuzaga keltiradi. Masalan, "Muxbir va mehmon", "Kitobxon va yozuvchi", "Shifokor va bemor" kabi rollar orqali o'quvchi o'z fikrini erkin ifodalashga harakat qiladi. Bu jarayonda grammatik to'g'rilikdan ko'ra nutqning ravonligi va ishonchliligi muhimroq bo'ladi.

Og'zaki nutqni rivojlantirishda hikoya tuzish va voqeani davom ettirish metodlari ham keng qo'llanadi. O'qituvchi rasm, kalit so'zlar yoki qisqa matn asosida hikoya tuzishni taklif etadi. Bu usul o'quvchining tasavvurini kengaytiradi va so'z boyligini oshiradi. Audiomatnlar bilan ishlash, ya'ni matnni tinglab qayta hikoya qilish yoki mazmunini qisqacha bayon qilish ham eshitish va og'zaki nutq ko'nikmalarini mustahkamlaydi.

Yozma nutqni rivojlantirishda bosqichma-bosqich yozdirish metodidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Avval mavzu yuzasidan og'zaki fikr almashiladi, so'ng reja tuziladi, keyin kichik hajmli matn yoziladi. Bu jarayon o'quvchining fikrini tizimli bayon qilishiga yordam beradi. Ijodiy diktantlar, tanlab yozish yoki matndagi

bo'sh joylarni to'ldirish kabi moslashtirilgan yozma mashqlar o'quvchini ortiqcha charchatmasdan savodxonlikni rivojlantiradi.

“Sinkveyn”, “Klaster”, “Insert”, “Baliq skeleti” kabi zamonaviy pedagogik texnologiyalar ham gospital sharoitida samarali natija beradi. Masalan, klaster usulida bir tushuncha atrofida so'z va iboralar yig'iladi, bu esa lug'at boyligini kengaytiradi. Sinkveyn metodi esa mavzuni qisqa, lekin mazmunli shaklda ifodalash orqali yozma fikrlashni rivojlantiradi. “Insert” usuli matn bilan ishlashda o'quvchining tushungan va tushunmagan joylarini belgilashga yordam beradi, bu esa mustaqil fikrlashni kuchaytiradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ham muhim metodik yo'nalishdir. Elektron darsliklar, interaktiv mashqlar, videodarslar va onlayn platformalar o'quvchiga mavzuni mustaqil ravishda takrorlash imkonini beradi. Bu ayniqsa davolanish sababli darslarda uzilish bo'lganda bilimlarni to'ldirishda qo'l keladi. Kompyuter yoki planshetda matn yozish, tahrirlash va xatolarni ko'rish yozma nutq ustida ishlashni yengillashtiradi. Ayniqsa, jismoniy cheklov mavjud bo'lganda bu usul samarali bo'ladi.

Refleksiya metodini qo'llash ham katta ahamiyatga ega. Dars oxirida o'quvchi o'z fikrini, his-tuyg'usini yoki bugungi o'rgangan yangiliklarini qisqa bayon qiladi. Bu usul o'quvchining o'z-o'zini anglash ko'nikmasini rivojlantiradi va psixologik yengillik beradi. Shuningdek, kichik ijodiy loyihalar tashkil etish mumkin. Masalan, “Mening bir kunim”, “Men sevgan kitob”, “Kelajakdagi orzum” mavzularida og'zaki yoki yozma mini-loyihalar tayyorlash o'quvchini mustaqil fikrlashga undaydi. Bunday faoliyat motivatsiyani oshiradi va darsni mazmunli qiladi.

Psixologik qo'llab-quvvatlash ham muhim omildir. O'qituvchi dars jarayonida ijobiy emotsional muhit yaratishi, rag'batlantiruvchi baholash usullaridan foydalanishi lozim. Hatto kichik yutuqlarni e'tirof etish o'quvchining o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi va faniga qiziqishini oshiradi. Ona tili darslarida erkin fikr bildirishga sharoit yaratish, tanqidiy emas, qo'llab-quvvatlovchi munosabatni shakllantirish muhimdir.

Shuningdek, multidissiplinar hamkorlikni kuchaytirish qiyinchiliklarni kamaytirishga xizmat qiladi. O'qituvchi shifokor va psixolog bilan hamkorlikda o'quvchining holatini inobatga olgan holda dars davomiyligi va mazmunini belgilashi zarur. Ota-onalar bilan muntazam aloqa o'rnatish orqali uy sharoitida ham nutqiy mashqlarni davom ettirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, hospital ta'lim sharoitida metodlar xilma-xil, moslashuvchan va qo'llab-quvvatlovchi xarakterga ega bo'lishi kerak. Ona tili darslari qoidalarni yod oldirish emas, balki muloqot, fikr bildirish va o'zini ifodalash maydoniga aylantirilgandagina samarali natija beradi.

Individuallashtirilgan pedagogik yondashuv, moslashuvchan metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, psixologik qo'llab-quvvatlash va multidissiplinar hamkorlik ta'lim jarayonining sifatini oshirishga xizmat qiladi. Bu yondashuvlar o'quvchining bilim olishga bo'lgan motivatsiyasini mustahkamlash, nutqiy va yozma ko'nikmalarini rivojlantirish, shuningdek, ijtimoiy-madaniy moslashuvini ta'minlash imkonini beradi. Natijada, hospital ta'lim sharoitida ona tili fanini samarali o'qitish pedagogik, psixologik va tibbiy jihatlarni uyg'unlashtirishni talab qiluvchi kompleks jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa nafaqat o'quvchining bilim darajasini oshiradi, balki uning shaxsiy rivojlanishi va rehabilitatsiyasiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. D. Inogamova, O. Safarova Hospital pedagogika. – Toshkent, 2024.
2. Raximov D. O'quv jarayonini individuallashtirish va moslashtirish usullari. – Toshkent, 2017.
3. Qosimova K., Qosimova M., Yo'ldosheva M. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent, 2009.
3. Yo'ldoshev J. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2021.
4. Karimova M. (2019). Inklyuziv ta'lim va sog'lomlashtirish muhitida multidissiplinar hamkorlik. Pedagogika jurnal, 2(5), 34–41.